

Yashil

IQTISODIYOT TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

No 5



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 528 sahifa.

E'lom qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullo o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqlapog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtalariev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'larning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lum sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyevna	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari	54
Ibdullahayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari	68
Uralov Olimjon Muhammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanova, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xuriniso Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeva	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunallyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятыова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruvi tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi.....	198
Boltaboev Murodbek Aybekovich	
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi	203
X. I. Boyev	
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi	207
Axmedova Dilrabo Kurbondurdji qizi	
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak	216
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili.....	220
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Автомобильная промышленность развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования.....	227
Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамирова Мафтуна Турсуналт кизи	
Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность	232
Шермаматова Иорда Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли	
ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности	238
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmuni va uning tarkibi	243
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	



Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг Розоков Мухаммадазиз Мансурович	248
Factoring Operations in Banks..... Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna	253
Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish..... Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich	257
O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati .. Oybek Elmuratov	264
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish..... Uzakova Umida Ruzievna	268
Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy .. Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich	274
O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari .. Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	278
Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari .. Norqobilov Nusrat Norsaitovich	284
Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi .. Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilara Yusubayevna	288
Mahalliy budgetlar mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi .. S. Y. Ismoilova	295
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil .. Qurbanova Firuza Solexovna	300
Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetlari ijrosi hisobini yuritish tartibi .. AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich	306
Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari .. Olimova Nodira Xamrakulovna	312
Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish..... Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li	324
Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvida faoliyat uzlusizligini baholash..... Tulovov Erkinjon To'lqin o'g'li	331
Основные направления развития инвестиционной деятельности предприятий..... Махкамова Надира Сайдмуратовна	335
Milliy statistika axborot tizimlarining funksional jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarining tahlili .. Otajonova Gulhayo Maqsud qizi	340
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish axborot tizimini modellashtirish..... Xudoyorov Laziz Niyoziyovich, Ergashova Nargiza Boboxonovna	345
Mamlakatimzda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullari..... Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich	351
Iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya loyihalarini jalb qilingan mablag'lar orqali moliyalashtirishning zarurligi .. Amonova Dilafro'z O'tkurovna	357
To'lov tashkilotlarini tashkil etishda xatarlarni boshqarish .. Axmedov Miraziz Alisherovich	362
Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari .. Hamrokulov M. O.	367



Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik sanoat zonalari faoliyatining zarurligi va iqtisodiy-huquqiy maqomi.....	375
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
Bank tizimida marketing faoliyati orqali yangi innovatsion xizmatlarni joriy etishning zamonaviy holati.....	379
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Экономическая сущность инновационной деятельности в банковском секторе	388
Шадиева Дилдора Хамидовна	
Yengil sanoat taraqqiyotining xitoy tajribasi va undan o'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	392
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
Tut parvonasi zararkunandasining biologik tarqalishi va zararini oldini olish choraları.....	402
Oybek Toshtemirovich Karimov	
Ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari: kasbiy kamsitish	406
Iminova Nargizaxon Akramovna	
Ihsizlik nafaqalari tayinlash va xalqaro tajriba.....	412
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	
Takroriy ekinlar urug'ini to'g'ridan-to'g'ri nol ishlov berish orqali ekadigan qurilmaga tushadigan yuklamaning nazariy tadqiqoti.....	418
Abdullayev Baxodirjon Valijon o'g'li	
Banklarida jinoi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimining roli	422
Abdullayeva Dildora Qudratovna	
Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartari asosida tashkil etishning uslubiy jihatlari	425
Adxamov Samariddin	
Barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati.....	430
Asqarova Mavluda Turabovna, Otajonova Charoxxon Polvonqli qizi	
Ilmiy-innovatsion iqtisodiyotda suv xo'jaligini rivojlantirish muammolari, yechimlar va natijalar: fundamental asosda.....	435
Bababjanov Abdirashid Musayevich	
Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning milliy va xalqaro standartlari.....	441
Maxamadaliyeva Mahliyoxon Maxamadmurod qizi	
Tijorat banklari aktivlari va ularni samarali boshqarish nazariy asoslari	448
Masharipov Maxim Bekturdiyevich	
Tijorat banklarning moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan xavf-xatar va uning mohiyati	453
Rashidov Raximjon Iskandarovich, Abduraxmonov Anvar Akbar o'g'li	
Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirish omillari va hozirgi holatining tahlili	459
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li	
Moliyaviy menejment tizimi samaradorligini oshirishda raqamlı marketing strategiyasidan foydalanish	466
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
O'zbekiston Respublikasi moliyaviy tizimida byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati va o'rni	473
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna, Ajibayeva Rauiya Maxsudovna	
Aholi daromadlarini oshirishda asalarichilikning o'rni	479
Xudayarova Zuxra Yuldashevna	
Цифровые и традиционные методы сбора информации в маркетинговых исследованиях:	
сравнительный анализ	482
Бекназова Комилахон Миркамол қизи	
Tijorat banklari faoliyatida iqtisodiy risklar va ularni nazariy asoslari	490
Burxonov Asliddin Asqar o'g'li	
Biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish modellari va usullari hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarining qiyosiy tavsifi.....	497
Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna	



Тенденции развития пищевой промышленности Узбекистана.....	503
Назарова Райно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна	
Soliq-bojxona siyosatining dolzarb masalalari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari.....	509
Usmonov Kaxramonjon Akbaraliyevich	
Статистический анализ факторов, влияющих на бренд молока и молочных продуктов в Узбекистане	513
Холдарова Фариза Тухтабаевна	
Правовое регулирование рынка цифровых активов и криптовалют.....	519
Якубова Ш. Ш., Рашидов Рахимжон Исандарович	



BAHOLANGAN MAJBURIYATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Audit" kafedrasи dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarida baholangan majburiyatlarni tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotlarda yoritib berish masalalariga atroficha to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar amaliyotida uchraydigan turli yuridik hamda konstruktiv javobgarliklar asosida yuzaga keladigan baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobida to'g'ri rasmiylashtirish va moliyaviy hisobotlarda baholangan majburiyatlar bo'yicha ma'lumotlarni haqqoniy yoritib berish maqsadida baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobida tan olish va aks ettirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, baholangan majburiyatlarning eng keng tarqalgan turlaridan biri hisoblangan restrukturizatsiya bo'yicha baholangan majburiyatlarning turlari va tasnifi bo'yicha xulosalar shakllantirilgan. Xususan, restrukturizatsiya bilan bog'liq xarajatlar tasnifi hamda baholangan majburiyatlari tan olish yo'nalishlari va tartibi bo'yicha taklif hamda tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, rezervlar, baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar, restrukturizatsiya, xarajatlar.

Abstract: In this article, the issues of recognition, evaluation and disclosure of the provisions in the financial statements of economic entities are discussed in detail. Also, proposals have been developed to properly formalize the provisions arising on the basis of various legal and constructive obligations found in the practice of economic entities in accounting and to recognize and reflect the provisions in accounting in order to truthfully disclosure the data on the provisions in financial statements. At the same time, draw conclusions in detail about the types and classification of provisions for restructuring, which are one of the most common types of provisions. In particular, suggestions and recommendations were given on the classification of costs related to restructuring and the directions and procedure for recognition of the provisions.

Key words: Accounting, financial statement, reserves, provisions, contingent liabilities, restructuring, costs.

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрены вопросы признания, оценки и раскрытия обязательств, оцененных в финансовой отчетности хозяйствующих субъектов. Также разработаны предложения по признанию и отражению в бухгалтерском учете оцененных обязательств, возникающих на основе различных юридических и конструктивных обязанности, встречающихся в практике хозяйствующих субъектов, в целях надлежащего оформления в бухгалтерском учете и достоверного раскрытие в финансовой отчетности информации об оцененных обязательствах. При этом подробно сформированы выводы о видах и классификации оценочных обязательств по реструктуризации, которые являются одним из наиболее распространенных видов оценочных обязательств. В частности, были даны предложения и рекомендации по классификации затрат, связанных с реструктуризацией, а также направлениям и порядку признания оцененного обязательства.

Ключевые слова: Бухгалтерский учет, финансовая отчетность, резервы, оценочные обязательства, условные обязательства, реструктуризация, затраты.

KIRISH

Xo'jalik yurituvchi subyektlar majburiyatlarini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, majburiyatlar tarkibida baholangan majburiyatlarni tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayotgan bo'lsa-da, mazkur turdagи majburiyatlar hisobini yuritishning metodologik asoslari to'liq yaratilmaganligi buxgalteriya hisobida muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Baholangan majburiyatlar xo'jalik yurituvchi subyektlar umumiyligi majburiyatlarining muhim va ajralmas qismi sifatida ifodalanishi lozim va ularni buxgalteriya hisobida tan olish hamda moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirish moliyaviy holatning shaffof va haqqoniy yoritib berilishiga zamin yaratadi. Bu esa, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarning strategik boshqaruvi qarorlarini qabul qilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.



Turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda baholangan majburiyatlar aksariyat holatlarda sud jarayonlari bo'yicha majburiyatlar, soliq majburiyatlar, turli kafolatlar bo'yicha majburiyatlarni tan olish natijasida moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko'rsatish risklarini keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur majburiyatlarni haqqoniy baholash xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati va manfaatdor tomonlarga potensial moliyaviy risklarni baholash va ularni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Baholangan majburiyatlarni hisobga olish xo'jalik yurituvchi subyekta moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy majburiyatlarni bashorat qilish va rejalashtirish, ularning o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqoridaqilarni inobatga olgan holda, bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobida tan olish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishda shaffoflik va haqqoniylilikni ta'minlash, moliyaviy hisobotlarda uchraydigan risklarni baholash, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga rioya qilish va biznes risklarini boshqarish dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy amaliyotda va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida "Baholangan majburiyatlar" atamasi yuzasidan turlicha qarashlar mavjud. Ba'zi iqtisodchi olimlar tomonidan "Baholangan majburiyatlar" atamasi "Rezervlar" sifatida talqin qilingan.

Xususan, Ya. V. Sokolovning fikricha, "Rezervlar bu korxonaning kutilayotgan va qat'iy belgilangan xarajatlarini qoplash uchun ajratilgan mablag'lardir" [1].

A. D. Sheremet "rezervlarni moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar narxini pasaytirish uchun foydalanimagan imkoniyatlar deb tushunish kerak", degan xulosaga kelgan [2].

Yu.A. Babayev va A.M. Petrov fikrlariga qaraganda, "rezervlar alohida buxgalteriya hisobi obyektlarini baholashni aniqlashtirish va kelgusi xarajatlar hamda to'lovlarini qoplash uchun yaratiladi" [3].

I.A. Lisovskaya hamda N.G. Trapeznikovalar "rezervlar majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq xarajatlarni qoplashga mo'ljallangan manba sifatida tavsiflanadi", degan to'xtamga kelgan [4].

L.T. Gilyarovskaya nuqtayi nazaricha "rezervlar deganda korxonaning uzlusiz ishlashi uchun yaratilgan resurslar zaxiralari, shuningdek ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun foydalanimagan imkoniyatlar tushuniladi" [5].

A.V.Klyausterning ta'kidlashicha esa, "rezervlar tashkilotning ixtiyoriy ravishda shakllantirilgan, ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalinish imkoniyatlarini ta'minlaydigan majburiyatlarini zaxira sifatida talqin qilishdir" [6].

"Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar" nomli 37-son buxgalteriya hisobining xalqaro standartida "baholangan majburiyatlar noaniq miqdorlar yoki vaqt oralig'idagi majburiyatlar sifatida belgilanadi. Agar javobgarlik natijasida korxona iqtisodiy resurslarining chiqib ketishi talab qilinayotgan yoki boshqa iqtisodiy resurslarga ta'sir qilish ehtimoli 50 foizdan ortiq bo'lsa, korxona baholangan majburiyatlarni tan olishi kerak", deb qayd etilgan [7].

J.Uilyams fikricha, "baholangan majburiyatlarning buxgalteriya hisobida paydo bo'lishi buxgalteriya hisobidagi muhim rivojlanish sifatida ko'rildi, chunki u "Big bath" kabi metoddan foydalanishni tartibga solib, unda aktivlarni kamaytirish uchun daromaddan bir martalik to'lov olinadi, bu esa kelajakda xarajatlarni kamaytiradi" [8].

Yuqoridaqilarning fikrlarini umumlashtirgan holda ta'kidlashimiz mumkinki, buxgalteriya hisobida baholangan majburiyatlar kelgusidagi xarajatlar yoki sarflarni kutish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ajratilgan, ammo vaqt yoki miqdor jihatidan noaniq bo'lgan summalarga ishora qiladi. Shu sababli, baholangan majburiyatlar buxgalteriya balansida majburiyatlar sifatida aks ettiriladi, chunki ular xo'jalik yurituvchi subyektning kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan majburiyatlarini ifodalaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxgalteriya hisobida baholangan majburiyatlar, odatda, buxgalteriya xizmati xodimlarining professional taxminlari va mulohazalari asosida tan olinadi hamda moliyaviy hisobotda aks ettiriladi, chunki kelgusidagi xarajatlar yoki aktivlarning chiqib ketishining muddati va qiymati noaniq bo'lishi mumkin. Lekin, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbariyati faoliyatdagagi turli o'zgarishlar va yangi ma'lumotlarni aks ettirish uchun tartib-qidalarni muntazam ravishda ko'rib chiqishlari va tuzatishlari kerak. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar kelgusidagi potensial xarajatlar va sarflarni o'z vaqtida hamda to'g'ri tan olishlarini ta'minlashlari lozim. Bu esa, o'z navbatida, investorlar va manfaatdor tomonlarga xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati to'g'risida shaffof axborotlar shakllanishiga zamin yaratadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning baholangan majburiyatları - bu o'tgan voqe-a-hodisalar natijasida yuzaga kelgan, ammo ularni bartaraf etish kelajakdagi noaniq hodisalarga bog'liq bo'lgan va ularni to'lash miqdori yoki



muddatini ishonchli darajada aniqlash mumkin bo'Imagan majburiyatlardir. Bunday majburiyatlar majburiyatning ehtimoliy miqdorini baholashni talab qiladi va har xil turdag'i kafolatlar, da'volar, restrukturizatsiya, soliq risklari va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.

"Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar" nomli 37-son buxgalteriya hisobining xalqaro standartiga muvofiq, buxgalteriya hisobida baholangan majburiyatlar hisobga olinishi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarida oshkor etilishi lozim. Ular moliyaviy hisobotning majburiy elementi bo'lib, moliyaviy holat va moliyaviy natijalar ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi.

Fikrimizcha, baholangan majburiyatlar buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning eng muhim elementlaridan biri hisoblanib, ular investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati bilan bog'liq potensial risk va majburiyatlarni tushunishga yordam beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning baholangan majburiyatlarini buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha aks ettirish maqsadga muvofiqdir (1-rasm).

Buxgalteriya hisobi yozuvlarida aks ettirish

- Baholangan majburiyatlarni tan olish va baholash hamda buxgalteriya hisobi yozuvlarida aks ettirish buxgalteriya hisobi prinsiplariga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur majburiyatlar, odatda, baholangan majburiyatlar uchun ajratilgan maxsus schyotlarda aks ettiriladi.

Moliyaviy hisobotlarda oshkor qilish

- Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotlarida baholangan majburiylarga oid axborotlar buxgalteriya hisobi standartlari va moliyaviy hisobot qoidalari talablariga muvofiq ohib beriladi. Bu, odatda, baholangan majburiyatlarning mohiyatini, ularning kutilayotgan miqdorini va noaniqlik darajasini belgilaydigan ishchi hujjatlarda o'z aksini topadi.

Moliyaviy holat va moliyaviy natijalarga ta'sirini bayon etish


- Baholangan majburiyatlar xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati va moliyaviy natijalariga sezilar ni ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki ular kelajakdagi voqealar va taxminlar asosida o'zgarishi mumkin. Shu boisdan, moliyaviy hisobotning ishonchligi uchun baholangan majburiyatlarni ob'ektiv va haqqoniy baholashni ta'minlash muhimdir.

1-rasm: Baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish yo'nalishlari¹

Baholangan majburiyat miqdori xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining mavjud faktlari, shunga o'xshash majburiyatlarni bajarish bo'yicha oldingi tajribasi, shuningdek, ekspertlarning fikrlari asosida belgilanadi. Xo'jalik yurituvchi subyekt bunday baholashning asosliligini tasdiqlovchi hujjatli dalillarni taqdim etishi shart. Mazkur majburiyatlarni buxgalteriya hisobida to'g'ri rasmiylashtirish hamda moliyaviy hisobotlarda haqqoniy yoritib berish uchun, avvalo, javobgarlik yuklaydigan hodisaning mavjudligi, mazkur javobgarliklarning yuridik yoki konstruktiv javobgarlik asosida yuzaga kelganligi, sodir bo'lgan operatsiyaning ehtimolligi 50 foizdan yuqori ekanligi hamda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarida keltirilgan usullar asosida ishonchli baholash imkoniyatining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, baholangan majburiyatlarni ishonchli baholash moliyaviy hisobotlardagi majburiyatlar miqdorini to'g'ri va haqqoniy aks ettirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini yoritib berishda muhim hisoblanadi.

Baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobida tan olish va aks ettirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi hamda amalga oshiriladi (2-rasm).

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm: Baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobida tan olish va aks ettirish bosqichlari²

Baholangan majburiyatlarning xalqaro amaliyotda turlari juda ham ko'p, masalan, sud nizolari, ish haqi, soliqlar, kreditlar bo'yicha foizlar, restrukturizatsiya, zarar keltiruvchi shartnomalar, majburiy badallar va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Baholangan majburiyatning miqdori haqiqiy ma'lumotlar yoki hisob-kitoblar asosida aniqlanadi. Misol uchun, ish haqini hisoblash xodimlar tomonidan ishlagan haqiqiy soatlar yoki kunlar asosida hisoblab chiqilishi mumkin. Shuningdek, soliq hisobi amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq kutilayotgan soliq majburiyati asosida hisoblanishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, majburiyatlarning amalda bajarilishi kelajakda sodir bo'lsa ham, majburiyatlarni ular paydo bo'lgan davrda buxgalteriya hisobida tan olinadi. Misol uchun, agar oylik ish haqi hisoblangan bo'lsa, ular keyingi oyda haqiqiy to'lov amalga oshirilgan bo'lsa ham, hisoblangan oyda tan olinadi.

Baholangan majburiyatlarni tegishli ishchi schotlarda aks ettiriladi. Ular odatda schotlarning kredit tomonida boshqa shaxslar oldidagi majburiyatlarni aks ettiradi. Shu bilan birga, debetda majburiyatning xususiyatini aks ettiruvchi tegishli xarajatlar hisobga olinadi (masalan, "Ish haqi xarajatlari" yoki "Soliq xarajatlari" va boshqalar).

Baholangan majburiyatlarni xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotida, odatda, buxgalteriya balansida uning aniq miqdori va qiymati, shu bilan birga, baholangan majburiyatlarning mohiyati, ularning kutilayotgan muddati va xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini tushunish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar tegishli ishchi hujjatlarda ochib berilishi maqsadga muvofiqdir.


Umuman olganda, baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobida to'g'ri tan olish hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotlarining ishonchliligi va to'liqligini ta'minlash uchun muhim sanaladi.

Baholangan majburiyatning eng keng tarqalgan turlaridan biri bu restrukturizatsiya jarayonlarida qo'llaniladigan baholangan majburiyatlardir. Restrukturizatsiya bu belgilangan dastur bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati tomonidan rejalashtirilgan va nazorat qilinadigan o'zgarishlarga olib keladi hamda turli holatlarda yuzaga keladi. Restrukturizatsiyaning quyidagi turlari mavjud (3-rasm).

Restrukturizatsiya oida qaror faqat bitta boshqaruvchi tomonidan qabul qilinmaydi. U boshqaruv Kengashida, direktorlar Kengashida, ta'sischilarining yig'ilishlarida, aksiyadorlik jamiyati umumiy yig'ilishlarida muhokama qilinishi va bunda barcha darajadagi tuzilmalar rahbariyati ishtiroy etishi ta'minlanishi maqsadga muvofiqdir.

Restrukturizatsiya jarayonlarida sarflanadigan xarajatlar uchun baholangan majburiyat quyidagi hollarda tan olinadi (4-rasm).

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

3-rasm: Restrukturizatsiyaning turlari³4-rasm: Restrukturizatsiya bo'yicha baholangan majburiyatlarni tan olish holatlari⁴

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Bundan tashqari, restrukturizatsiya sanasigacha bo'lgan identifikatsiyalanadigan kelgusi operatsion zararlar, agar ular zarar keltiruvchi shartnomalarga tegishli bo'lmasa, baholangan majburiyat tarkibiga kiritilmaydi. Shuningdek, aktivlarning kutilayotgan chiqib ketishidan foya, hatto aktivlarning sotilishi restrukturizatsiyaning bir qismi sifatida qaraladigan bo'lsa ham, restrukturizatsiya bo'yicha baholanadigan majburiyatni baholashda inobatga olinmaydi.

Faoliyatni restrukturizatsiya qilish jarayonida turli xil xarajatlar yuzaga kelishi mumkin. Mazkur xarajatlar restrukturizatsiya hajmi, xususiyati va maqsadlariga qarab farq qilishi mumkin. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini restrukturizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi (1-jadval).

1-jadval: Restrukturizatsiya bilan bog'liq xarajatlar tasnifi hamda baholangan majburiyatni tan olish tartibi⁵

No	Xarajat turlari	Baholangan majburiyat tan olinadi	Baholangan majburiyat tan olinmaydi
1	Xodimlar bilan bog'liq xarajatlar	Xodimlarni ishdan bo'shatish paytida to'lanadigan kompensatsiya to'lovlari; Faoliyatni davom ettirayotgan xodimlarni yangi vazifalar yoki funksiyalarni bajarishlari uchun qayta tayyorlash va o'qitish bo'yicha xarajatlar.	Restrukturizatsiya jarayonlari boshlangunga qadar xodimlarga to'langan mehnat haqi xarajatlari; Xodimning davom etgan faoliyati bilan bog'liq rag'batlantirish to'lovlari (masalan, boshqa joyga ko'chib o'tish uchun bonus); Yangi xodimlarni yollash va o'qitish xarajatlar.
2	Asosiy vositalar bilan bog'liq xarajatlar	Tarkibiy bo'lmalar yoki boshqa obyektlarni yopish yoki ko'chirish xarajatlar; Ko'chmas mulknii ijara qilish yoki sotish xarajatlar; Uskunani ko'chirish yoki almashtirish xarajatlar.	Asosiy vositalarning qadrsizlanishi; Asosiy vositalarning hisobdan chiqarish bo'yicha xarajatlar.
3	Ijara xarajatlari	Restrukturizatsiya boshlanganidan keyin bekor qilinmaydigan lizing shartnomasi bo'yicha ijara to'lovlari; Ijara shartnomasini muddatidan oldin bekor qilganlik uchun jarima.	Restrukturizatsiya boshlanishidan oldin yopilgan tarkibiy bo'lmalar bo'yicha ijara to'lovlari; Yangi faoliyat boshlanishidan oldin yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonidagi ijara to'lovlari.
4	Yuridik va konsalting xizmatlari bo'yicha xarajatlar	Hujjatlarni qayta tuzish, nizolarni hal qilish va mehnat shartnomalari bilan bog'liq advokatga to'lovlari va boshqa yuridik xarajatlar; Strategik rejalashtirish, moliyaviy tahlil va o'zgarishlarni boshqarish bo'yicha maslahatchilarga to'lanadigan to'lovlari.	Restrukturizatsiya yakunlanganidan keyin xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo'yicha maslahat xarajatlar.
5	Moliyaviy xarajatlar	Qarzlarni qayta ko'rib chiqish yoki qayta hisoblash xarajatlari, shu jumladan kreditlar yoki obligatsiyalar bo'yicha to'lovlari va foizlar; Restrukturizatsiya bilan bog'liq aktivlar va majburiylarni baholash xarajatlar.	
6	Marketing va kommunikatsiyalar bo'yicha xarajatlar	Manfaatdor tomonlar, shu jumladan xodimlar, mijozlar va investorlar bilan munosabatlari strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish xarajatlari; Restrukturizatsiya bilan bog'liq yangi brendlari yoki mahsulotlari uchun marketing va reklama xarajatlari; Yangi biznes jarayonlarni qo'llab-quvvatlash uchun axborot tizimlari va texnologiyalarini modernizatsiyalash xarajatlar.	Yangi tizimlar va kommunikatsiya tarmoqlariga investitsiyalar bo'yicha xarajatlar.
7	Turli boshqa xarajatlar	Aktivlar va passivlarni inventarizatsiya qilish xarajatlari; Restrukturizatsiya maqsadlariga erishishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar uchun xarajatlar.	Restrukturizatsiya boshlanishidan oldin aniqlanishi mumkin bo'lgan kelgusi operatsion zararlar.

5 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Yuqorida jadvalda keltirilgan restrukturizatsiya bo'yicha xarajatlar turlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning biznes xususiyati hamda operatsiyalarining turlariga mutanosib ravishda o'zgarishi hamda restrukturizatsiya maqsadlariga qarab farqlanishi mumkin. Restrukturizatsiya chora-tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirishda barcha xarajatlarni chuqur professional mulohaza asosida baholash, tan olish, hisobga olish hamda moliyaviy hisobotlarda yoritib berish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda turli javobgarliklar natijasida yuzaga keladigan baholangan majburiyatlarning turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda tasnifidan kelib chiqqan holda, baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va moliyaviy hisobotlarda yoritib berish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Dastavval, baholangan majburiyatlar atamasi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ta'riflari o'rganib chiqildi hamda mazkur atama bo'yicha mualliflik talqini yoritib berildi. Mazkur atama yuzasidan muallif tomonidan ishlab chiqilgan ta'rif baholangan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini yanada aniqroq ifoda etish imkonini beradi.

Tadqiqotlar natijasida baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobida rasmiylashtirish tartibi hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish bosqichlari ishlab chiqildi. Baholangan majburiyatlarni hisobga olishda mazkur tartib-taomillar hamda bosqichlarni qo'llash natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning majburiyatları miqdorini to'g'ri aniqlashga, daromad va xarajatlarning muvofiqligini ta'minlashga hamda xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotlaridagi muhim buzib ko'rsatishlar riski darajasini pasaytirishga erishiladi.

Shu bilan birga, xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobi amaliyotida ko'p uchraydigan restrukturizatsiya jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan baholangan majburiyatlarning turlari tizimlashtirildi hamda mazkur turdag'i majburiyatlarni tan olish yo'nalishlariga bat afsil to'xtalib o'tildi. Xususan, restrukturizatsiya bilan bog'liq xarajatlar tasnifi hamda mazkur jarayonda baholangan majburiyatni tan olish tartibi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Buning natijasida, xo'jalik yurituvchi subyektlarda restrukturizatsiya jarayonida yuzaga keladigan xarajatlarni to'g'ri tasniflash, hisobga olish hamda qoplash maqsadida belgilangan tartibda baholangan majburiyatlarni shakllantirib borish maqsadga muvofiq ekanligi asoslandi hamda moliyaviy hisobotlarda baholangan majburiyatlar bo'yicha haqqoniy ma'lumotlarni yoritib berishga imkon yaratildi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- Соколов Я.В. Основы теории бухгалтерского учета. М.: Финансы и статистика, 2000. 496 с.
- Sheremet A.D. [Theoretical issues in accounting disciplines]. Бухгалтерский учет = Accounting, 2008, no. 2, pp. 60–62. (In Russ.)
- Бабаев Ю.А., Петров А.М. Методология и методика учета в общественном питании. //Все для бухгалтера. 2006. № 1. С. 6–17.
- Лисовская И.А., Трапезникова Н.Г. Проблемные сроки бухгалтерского баланса: учет и отражение оценочных обязательств. // Вестник Поволжского государственного технологического университета. Сер.: Экономика и управление. 2012. № 2. С. 69–77.
- Методология и организация бухгалтерского учета и экономического анализа в условиях рыночной экономики: монография. /под ред. Л.Т. Гиляровской. М.: Современная экономика и право, 2004. 214 с.
- Кляустер А.В. Экономический характер резервов в бухгалтерском учете. //Вестник Хакасского государственного университета им. Н.Ф. Катанова. 2012. № 2. С. 71–75.
- IFRS Foundation, 2012. International Accounting Standard 37: Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets. Retrieved on April 24, 2012.
- Williams J, 1999. IAS 37, PROVISIONS, CONTINGENT LIABILITIES AND CONTINGENT ASSETS Archived 2012-04-15 at the Wayback Machine. Retrieved on April 25, 2012.
- Ochilov, F. Sh. (2020). Majburiyatlar hisobi va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, TMI, 2022. –56 bet.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.